



THE ROLE OF FISHING CULTURE IN MEDICINE

Oltinoy Bakhtiyorova

*Teacher of the Department of "Social Sciences"
of the Urgench Branch of the TMA*

zaynab_74_2011@mail.ru

Urgench, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Fish, muddy water, Amu Darya, Pseudoscaphirhynchus kaufmanni, Khorezm, fishing rod, Fish oil, Carp, Bakra fish, Korma fish, herring fish, mackerel fish, sardine fish.

Abstract: This article presents information about the development of the ancient fishing culture in the Amu Darya basin, the role of fish and fish dishes in medicine and the daily life of the population.

Received: 19.09.25

Accepted: 20.09.25

Published: 21.09.25

BALIQCILIKNING TABOBATDA TUTGAN O'RN

Oltinoy Baxtiyorova

TTA Urganch filiali "Ijtimoiy fanlar" kafedrasi o'qituvchisi

zaynab_74_2011@mail.ru

Urganch, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Baliq, loyqa suv, Amudaryo, Parxez, Xorazm, qarmoq, Baliq yog'i, Sazan baliq'i, Bakra baliq, qorma baliq, seld baliq, makkal baliq, sardinka baliq.

Annotatsiya: Mazkur maqolada Amudaryoda havzalarida qadimdan shakillangan baliqchilik madaniyatini rivojlanishi, baliqlar va baliqli taomlarning tabobatda hamda aholining kundalik mayishiy hayotida tutgan o'rn haqidagi ma'lumotlar keltirilgan.

РОЛЬ РЫБОЛОВНОЙ КУЛЬТУРЫ В МЕДИЦИНЕ

Олтиной Бахтиёрова

Преподаватель кафедры «Общественных наук»

Ургенчского филиала ТМА

zaynab_74_2011@mail.ru

Ургенч, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Рыба, мутная вода, Амударья, Pseudoscaphirhynchus kaufmanni, Хорезм, удочка, Рыбий жир, Карп, Рыба Бакра, Рыба Корма, Сельдь, Скумбрия, Сардина.

Аннотация: В статье представлены сведения о развитии древней рыболовной культуры в бассейне Амударьи, роли рыбы и рыбных блюд в медицине и повседневной жизни населения.

Kirish. Amudaryo o'zining hosildor loyqa suvi bilan birga, xilma-xil baliqlarini ham xorazmliklarga hadya etgan. Shu sababli Xorazm aholisi qadimdan baliqchilik bilan keng shug'ullanishganlar. Xorazm hududini tadqiq qilgan arxeologlar ham Kaltaminorlar faqat baliqchilik bilan hayot kechirganliklarini ta'kidlaydilar. Baliqchilik Xorazm vohasida ham asosiy ozuqa manbai sifatida u bilan bog'liq turli xil taponimlar hamda afsonalarning paydo bo'lishiga sabab bo'lgan. Shunday afsonalardan birida shunday ma'lumotlar keltiriladi:

Qadimgi davrda bir podshoh o'zining bir mulozimini qilgan xatosi uchun jazolash maqsadida uni kimsasiz cho'lga surgun qilishni amr qiladi va keyinchalik uni yolg'iz yurmasligi uchun uni yoniga bir parini yuborishlarini buyuradi.

Shundan so'ng ancha yillar o'tadi podshoh buyrug'i bilan mulozimi surgundagi odamni ko'rishga boradi va ular cho'lda katta bir xalq shakillanayotganligini hamda ular faqat baliq go'shti istemolqilayotganliklarini aytadilar. Bu xalq keyinchalik Xorazm xalqi bo'lib shakllanganligi to'gtisida afsonada keltirib o'tilgan.

Asosiy qism. Baliqchilik voha aholisining iqtisodiy hayotining muhim sohasi hamda asosiy ozuqasi bo'lishi bilan birga xalq tabobatida ham muhim o'rin tutgan.

Xorazmliklar xalq tabobatida turli hayvonlar o'simliklar bilan davolash azaldan shakllangan yo'nalish hisoblanadi, baliqchilik bu borada yetkchi hisoblanib, bugungi kunda ham bu davom etib kelmoqda.

Voha aholisi xalq tabobatida baliq maxsulotlaridan keng foydalaniladi, chunki baliq oqsillarga boy baliq go'shti parxez taom sanalib, ko'pgina kassalillarni davolashda ishlatiladi. Jumladan, xalq orasida sariq kasalligi bilan kasallanga xbemorlarni davolashda tirik sazan baliqqa qarab uni harakatlarini kuzatishi (bu narsa inson asab tizimlariga ham yaxshi ta'sir qilishi fanda isbotlangan) orqali sariq kasalligini yengib o'tishga yordam berishi aytiladi. Bundan tashqari baliq ovuldirovug'i (igirti) farzandsiz ayollar uchun foydali ekaligi aytiladi. Baliq suyagini maydalab istemol qilinsa inson tanasida kaltsiy yetishmovchiligini bartaraf qilishga yordam beradi.

Baliq omega 3 ga boyligi bilan boshqa istemol mahsulotlarida ajralib turadi. Bundan tashqari haftasiga 2 bo'lak baliq go'shti iste'mol qilganlarda saraton kasalliklari xavfi 3 baravar kamayishi isbotlangan.

Depressiyani bartaraf qiladi. Ko'z o'tkirligi va uning faoliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Astma rivojlanishining oldini oladi. Depressiyaga qarshi ta'sirga ega. Qand kassaligi xavfini kamaytiradi.

Uzoq umr ko'ruvchi mamlakatlarda yashovchi insonlar ratsionida go'sht va sut mahsulotlari yetakchi o'rinni egallaydi. Hozirgi zamonaviy tibbiyotda baliq yog'idan omega 3 kapsulasi ko'z ravshanligini oshirishda asosiy vositalardan biri hisoblanadi. Xalq orasida baliqlar bilan bog'liq turli xil qarashlar mavjud. Xususan baliq qoni peshonaga surtilsa insonlarni ins jinslardan himoya qilishi aytilgan. Bundan tashqari sazan baliq qoni sariq kasalligi bilan kasallangan bemorlarni quloqlari orqasiga uning qoni surtilsa immunitet tiklanishiga yordam berishi aytiladi.

Hozirgi kunda insoniyatda ortiqcha vazn olish muammasi dolzarb bo'lgan vaqtda parhez mahsulot bo'lgan oqsillarga boy baliq go'shti istemoli ko'proq tafsia etiladi.

Baliq tanglay suyagi olib bolalarga osib qo'yilsa uni ko'z tegishidan asrashi aytiladi.

Turkiy xalqlarda «muqaddas joylar o'zini o'zi himoya qiladi» degan qadimgi qarashlar mavjud O'rta Osiyo xalqlari ziyoratgohlardagi mavjud hayvonot olami ham o'ziga xos tarzda muqaddaslashtirilgan. Bu esa, o'z navbatida muqaddaslashtirilgan hayvonlar haqidagi qarashlarni keltirib chiqargan. Xorazm vohasida shunday muqaddas jonivorlardan biri bu – baliq hisoblanadi.

Islom dini kirib kelgach bu qarashlar o'ziga hos ahamiyatga ega bo'la boshlagan. Azaldan islomda ikkita narsa o'lgan bo'sa ham halol hisoblangan, shularni biri bu baliq va aholi orasida halollik ramz sifatida namoyon bo'ladi.

Muqaddas ziyoratgohlar suv havzalaridagi baliqlarga qo'l tegizish mumkin emas, chunki aholi qarashlariga ko'ra, ular ko'rinishidan baliq, xolos. Balki mahalliy aholi baliq qiyofasidagi avliyolardir deb qarab, o'lganida ham ularni shayxlar ko'mishgan. Aynan yuqoridagi sabablarga ko'ra suv havzalaridagi baliqlarni o'ldirib yoki ushlash og'ir oqibatlarga olib keladi, deb qaralgan.

Xorazm vohasida baliqchilik madaniyatining shakllanishi aholining taomnomasiga katta ta'sir o'tkazgan. Aholi taomnomasida baliq taomlarining ham har xil turlari mavjud bo'lib, ular qovurma, suyuq sho'rva, dimlama, kabob va yaxna tamaddi kabi usullarda tayyorlanadi hamda qoq qilib ham iste'mol qilinadi. Shuningdek baliq oqsillarga boy baliq go'shti parhez taom hisoblanadi. Baliqlar voha aholisining sevimli istemol mahsuloti bo'lishi bilan bir qatorda aholi madaniyatiga urf-odatlarida ham muhim ahamiyatga egadir.

Qadimdan balki mahalliy aholi baliq qiyofasidagi avliyolardir deb qarab, o'lganida ham ularni shayxlar ko'mishgan Aynan yuqoridagi sabablarga ko'ra suv havzalaridagi baliqlarni o'ldirib yoki ushlash og'ir oqibatlarga olib keladi, deb qaralgan.

Xulosa. Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki Xorazm vohasi o'zbeklari hayotida baliq va baliqchilik muhim o'rin tutgan. Chunki, Amudaryoning quyi oqimida joylashgan Xorazm vohasi uchun baliqchilik xo'jalikning yetakchi sohalardan biri hisoblanadi. Amudaryoning

unumdor loyqasi o'zining hosildorlikka qo'shgan hissasidan tashqari baliqchilik sohasining ham asosiy manbasi hisoblangan. Bu esa baliq kultini muqaddaslashtirishga asos bo'lgan. Xulosa o'rnida aytishim mumkinki go'shtli mahsulotlar ichida qoloriyalarga boy baliq go'shti inson organizmi uchun koni foyda istemol mahsulot hisoblanadi. Baliqchilikni voha misolida etnografik tadqiqot nuqtayi-nazardan o'rganish jarayonida mahsulot aholi salomatligiga qo'shayotgan hissasi ustida ham to'xtalib o'tishni maqul bildik.

Shuningdek baliq va baliqli mahsulotlar nafaqat aholini iqtisidiy hayotida, balki sog'liq uchun ham nechaog'liq foydali ekanligi yuqorida keltirilgan ma'lumotlardan ham anglashimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Сидиков Д. Лаззатли таомлар. – Т.: Ўзбекистон, 1981. – Б.23
2. Маткаримова С.М. Хоразм ўзбекларининг анъанавий овқатланиши. Фан доктори (DSc) илмий даражасини олиш учун тайёрланган диссертацияси. Урганч 2021, 282 бет.
3. Бартольд В.В. Туркестан при исламе // Соч., т.2, ч. 1. — М., 1963, с.
4. Абдуллаев У. Фарғона водийсида этнослараро жараёнлар. – Т.: Янги аср авлоди, 2005. – Б. 134.
5. Снесарев Г.П. Реликты домусульманских верований и обрядов у узбеков Хорезма. – М.: Наука, 1969. – С. 325.
6. Иванов П.П. Архив Хивинских ханов XIX в. / Исследование и описание документов с историческим введением / Новые источники для истории Средней Азии. – Л.: Издание Государственной публичной библиотеки, 1940. – С. 139
7. Абидова, З. Қ. (2018). Хоразм воҳаси зиёратгоҳлари ва кадамжолари (тарихий-этнологик тадқиқот). Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) даражасини олиш учун ёзилган диссертация.
8. Abidova, Z. K. (2017). Natural Places of Worship of Khwarezm, connected with Water Elements. European Researcher. Series A, (8-2), 48-57.
9. Kadirberganovna, A. Z. (2023). Myths and legends about the saints of Khorezm. EPRA International Journal of Multidisciplinary Research (IJMR), 9(2), 50-52.